

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI O'QITUVCHILARIDA TASHKILOTCHILIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING USUL VA XUSUSIYATLARI

*Юлдошева Мадина Малик қизи*  
*Тошкент шаҳар, Сергели тумани*  
*300- ИДУМ бошланғич синф ўқитувчиси*  
[ymadinam@mail.ru](mailto:ymadinam@mail.ru)

**Annotatsiya.** Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilarida tashkilotchilik faoliyatini takomillashtirishning usul va xususiyatlari, shuningdek, ushbu kompetentsiyani boshqarishning yangi sharoitlari, metodikalari, texnologiyalarini, uning mazmunini va tuzilmasi bo'yicha ta'lim prinsiplari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Strategiya, texnokratik, identifikatsiya, prinsip, konstruktiv, tendensiya, metodika, funksional novatorlik, motivatsion, kompetentlik, paradigma.

Tashkilotchilik kompetentligini takomillashtirishning yakuniy maqsadi – tez o'zgaruvchi muhitga moslashish, mobillik, moslashuvchanlikni, raqobatbardoshlikni, bozor sharoitlarida bardoshlilikni egallashdir. Boshqaruvning yangi paradigmasi texnokratikdan voz kechish va doimiy yangilanishni, texnologiyani, tuzilmani, ya'ni doimiy o'zgaruvchi tashqi muhitga moslashish ko'nikmasini talab etuvchi innovatsion boshqaruvga o'tishga asoslangan. Bunday strategiya muvaffaqiyatlilikligining asosiy omili pedagoglar, ularning tashkilotchilik kompetentligi hisoblanib, u faoliyatning rasmiy va norasmiy qoidalari va me'yorlari, odatlar va an'analar, individual va guruhli manfaatlar, xulq uslubi, ishdan qoniqish ko'rsatkichlari, o'zaro hamkorlik darajasi, o'qituvchilarning maktab va uning rivojlanishi maqsadlari identifikatsiyasi darajasi bilan farqlanuvchi, bu maktabdagi o'qituvchilar xulqi xususiyatlari tizimini ifodalaydi. Tashkilotchilik kompetentligini shakllantirish – bu ijtimoiy-psixologik iqlimga, o'qituvchilarning xulqiga konstruktiv ta'sir etishga urinish hisoblanadi. Zamonaviy menejment tashkilotchilik kompetentligini barcha bo'linmalar va tinglovchilarda umumiy maqsadlarga yo'naltirish imkonini beradigan kuchli strategik vosita sifatida qabul qiladi [1; 189-210-b.].

O'qituvchi tomonidan tinglovchilarning faoliyatini boshqarishning yangi sharoitlari o'qitishning metodikalari, texnologiyalarini, uning mazmunini va tuzilmasini doimiy yangilashni talab qiluvchi uzluksiz ta'lim prinsiplariga asoslangandir, bu esa pedagogning doimiy o'zgaruvchi tashqi muhitga moslashish ko'nikmasini egallashi zaruratini belgilab beradi. Bunday sharoitlarda xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish tizimida o'qituvchi tashkilotchilik kompetentligini

rivojlantirish jarayonini ilmiy tadqiq etish muammolari alohida dolzarblik kasb etadi [2; 134-195-b.].

Bu muammo bugungi kunda ilk bor maktabga qadam qo'ygan o'qituvchilarda o'quv va kasbiy mehnatdagi muvaffaqiyatning muhim omili hisoblangan tashkilotchilik kompetentligini shakllantiradigan "Tarbiya" fani tinglovchilari uchun alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda zamonaviy maktab uning hayot faoliyatining barcha sohalarini demokratiyalashtirish sharoitlarida tinglovchilar hamda o'qituvchilar, ma'muriy xodimlar uchun konstruktiv insonparvarlik faoliyatining rasmiy va norasmiy qoidalari tizimiga aniq yo'nalganlikka ega bo'lishga kuchli ehtiyojga egadir. Bunday sharoitlarda ta'lim subyektlarining individual va guruhli manfaatlarini birlashtiruvchi an'analar va urf-odatlarining tiklanishi ijodiy jarayoni faol sodir bo'ladi. Bularning barchasi o'z navbatida tinglovchilar, o'qituvchilar, maktab ma'muriyati xulqi uslublari xususiyatlarida aks etadi. Yuqori tashkilotchilik kompetentligiga ega bo'lgan shaxs va muassasaning hayot faoliyatining muhim ko'rsatkichi ishdan, samarali o'zaro hamkorlikdan qoniqish darajasi hisoblanadi. Bunday sharoitlarda yuqori tashkilotchilik kompetentligiga ega bo'lgan ta'lim muhiti ta'lim sub'ektlarini ta'lim muassasasi va ularning rivojlanish maqsadlari bilan identifikatsiyalash omilining o'sishi tendensiyasi bilan farqlanishi alohida ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda yetakchilar jamiyatning ta'lim to'g'risidagi ideal tasavvurlarini haqiqiy amalga oshganligi hisoblanadi. Tashkilotchilikka xos bo'lgan obro' ularga o'z atroflarida sheriklari, hamkasblarini birlashtirish imkonini beradi va yakuniy natijada milliy va jahon ta'lim tizimining mustaqil rivojlanishi ularga bog'liq bo'ladi. Yetakchi ta'lim muassasalari tajribasi, ilg'or pedagoglarning novatorlik faoliyati, ta'lim tashkilotchilarining ahamiyati o'sib bormoqda. Odatda kasbiy jihatdan tajribali yagona fikrlilar jamosi yoki o'z izdoshlariga ega bo'lgan individ yetakchiga aylanadi. Yetakchilik jarayoni uchta zaruriy komponentlarning o'zaro aloqadorligini ko'zda tutadi, bular: yetakchining mavjudligi, izdoshlarning mavjudligi, yetakchilik o'zaro aloqalari amalga oshiriladigan ijtimoiy muhitning mavjudligi.

Ta'limdagi tashkilotchilar quyidagilar bilan tavsiflanadi;

Ko'pgina izdoshlari tomonidan tan olingan obro'ga ega;

O'quv-tarbiya ishlari jarayonini boshqarishda ishtirok etadi;

- yuzaga keladigan muammolarning muhokamasida faol ishtirok etadilar, ularning optimal hal etilishi usullarini taklif qiladilar;

- izdoshlarining muvaffaqiyatli faoliyatini tashkil eta oladilar, ta'lim jarayonidagi "tor joylarini" mustaqil aniqlash va bartaraf etishni biladilar;

- kasbiy ishtiyoqqa egalar, ijodiy g'oyalarni ishlab chiqishga innovatsiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishga moyillikni ifodalaydilar;

- atrofdagilarni o'zlarining haq ekanliklariga ishontirish ko'nikmalarini

egallagan, o'z hamkasblari bilan innovatsion o'zgarishlardagi muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarni baham ko'radilar.

Ta'lim tashkilotchilarining sanab o'tilgan sifatlari ro'yxati falsafiy va pedagogik adabiyotlar manbalari ma'lumotlarining qiyosiy tahlili asosida tuzildi [3; 17-25-b.]. O'qituvchining kuchli ijtimoiy, kasbiy-psixologik, tashkilotchilik sifatlari qatorida quyidagilar ta'kidlanadi: muloqotchanlik va rivojlangan tasavvur empatiya va yuqori sezgirlik bilan birgalikda; yaqqol ifodalangan muloqotdan quvonch hurmatga va o'zini-o'zi takomillashtirishga ehtiyoj bilan birgalikda, beg'arazlik va qalbning mustahkamligi, yuqori axloqiylik, to'g'ri so'zlik va adolat, shaxsiy maftunkorlik va boshqalar. Ta'lim tashkilotchilari maktab muhiti uchun umumiy bo'lgan muammolardan – fikrlardagi juda keskinlik, yuqori konformizm va pedagogik jarayon uchun ahamiyatli hisoblangan motivatsion sohadagi chetlanishlardan ham holi emas [4].

Ekspertlar jamoaviy yetakchi tashkilotchining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ikkita omillarni alohida ajratdilar, bular: jamoadagi muhit va moddiy baza. Jamoaviy tashkilotchining shakllanishini aniqlash bo'yicha uchinchi omil sifatida ekspertlar individual tashkilotchining mavjudligini ta'kidladilar.

Shunday qilib, ekspertlar individual tashkilotchini aniqlashning uchta mezonlarini alohida ajratdilar: yuqori kasbiy daraja, hamkasblar, tinglovchilar, otaonalar bilan o'zaro munosabatlarda madaniyat yuqori darajasi, barqaror pedagogi jamoani tashkil etish qobiliyati. Oxirgi ikkita mezon yuqorida belgilangan jamoaviy tashkilotchining shakllanishidagi omil – jamoadagi muhit bilan mos keladi. Bu mezonlar tashkilotchining eng ahamiyatli shaxsiy sifatlari deb ham belgilanadi. Bu so'rov ishtirokchilarining fikrlariga ko'ra, tashkilotchi uchun zarur bo'lgan boshqa sifatlarni inobatga olib, kompetentlik, yuqori axloq, rostgo'ylik va adolatdir.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Егоршин А.Л. Управление персоналом: Учебник для вузов. - 3-е изд. - Н. Новгород: НИМБ, 2001. - 720 с.//Степанов Е.Н. Планирование воспитательной работы классного руководителя//Воспитание школьников, 2003. - № 6. - С. 18 - 27.//210. Шишов С.Е., Кальней В.А. Мониторинг качества образования в школе. - М.: Педагогическое общество России, 1999.-354 с.
2. Батышев С.Я, Профессиональная педагогика, - М., 1997, — 512с.//Никитина Н.Н. Приёмы нравственной активизации личности: методические рекомендации,-Ульяновск: ИПК ПРО, 1997,-40 с.//Турчинов А.И. Профессионализация и кадровая политика: проблемы развития теории и практики- М., 1998.
3. Александрова Ю.В. Методика диагностики отношений взрослого человека: роли, позиции, нравственная сущность: Метод, пособие. -М: МПСИ, 2001.-96 с.

4. Беляев А.В. Социально-педагогические основы формирования гражданственности учащейся молодёжи: Монография. - Ставро-поль: СГУ, 1997.-204 с.
5. Бондаревская Е.В. Ценностные основания личностно ориентированного воспитания//Педагогика, 1995. -№4, -С. 31-34.
6. Юлдошев, У. Ю. (2019). Мусиқа уқитувчиси мутахассислигининг замонавий модели ва профессиограммаси. Современное образование (Узбекистан), (9 (82)), 47-53.
7. Юлдошев, У. Ю. (2017). Эксклюзивные свойства педагогической технологии в преподавании музыки. Молодой ученый, (22), 207-209.
8. Юлдошев, У. Ю. (2020). РОЛЬ АРТИКУЛЯЦИИ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЕ МАКОМА. In АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ (pp. 87-89).
9. Yuldoshev, U. (2018). Problems of Choosing Methods and Technologies in Musical Pedagogics. Eastern European Scientific Journal, (2).
10. Юлдошев, У. Ю. (2024). ОЛИЙ ПЕДАГОГИК МУСИҚА ТАЪЛИМИ ТИЗИМИДА МАҚОМ САНЪАТИ МАСАЛАСИ. Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari, 30(2), 133-139.
11. Sheraliyevna, S. D., & Yuldoshevich, Y. U. (2024). LEVEL OF VOCAL SINGING PERFORMANCE OF SPECIALIZED SCHOOL STUDENTS WITH DISABILITIES. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 42(3), 141-146.
12. Yuldoshevich, Y. U. (2024). TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA OCHIQ DARSLARNING O'RNI. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 5(1), 223-226.